

“Turonbank” ATB Kengashining
2024-yil “05” noyabr dagi
“68” -son qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

“Turonbank” ATB Boshqaruvining
2024-yil “27” sentabr dagi
“105/10” -son qarori bilan
“MA’QULLANGAN”

Ro'yxatga olindi № 1193

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKIDA
BIZNES HAMKORLARNI KOMPLEKS
TEKSHIRUVDAN O'TKAZISHGA OID
Y O' R I Q N O M A**

Mazkur ""Turonbank"" aksiyadorlik tijorat bankida biznes hamkorlarni kompleks tekshiruvdan o'tkazishga oid yo'riqnoma" (keyingi o'rinlarda ""Yo'riqnoma"" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining ""Banklar va bank faoliyati to'g'risida""gi, ""Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida""gi, ""Bank siri to'g'risida""gi, ""Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida""gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi ""O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida""gi PF-5729-sonli, 2020-yil 29-iyundagi ""O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida""gi PF-6013-sonli Farmonlari, 2024-yil 5-iyundagi ""Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida""gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida""gi PQ-210-sonli qarori, Adliya vazirligida 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro'yxatga olingan ""Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida""gi Nizom, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi ""ISO 37001:2016"" standartning talablari, ""Turonbank"" ATB (keyingi o'rinlarda – ""Bank"" deb yuritiladi) Ustavi, Bank tizimida Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish choralari to'g'risidagi Siyosat, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Siyosati, Bankning ichki me'yoriy hujjatlar talablari va tartib qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo'riqnoma ""Turonbank"" ATB uning BXMLari tomonidan Bankning biznes aloqalari bo'lgan yoki ularni o'rnatishni rejalashtirgan tashqi hamkorlarini (keyingi o'rinlarda ""Biznes-hamkorlar"")) tekshirish asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilaydi.

2. Biznes-hamkorlarni tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- 1) Bank xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;
- 2) insofsiz hamkorlar bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish;
- 3) biznes-hamkor shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarish imkoniyatini baholash;
- 4) biznes-hamkorlar bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish.

3. Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushuncha va atamalar qo'llaniladi:

biznes-hamkor — Bankning biznes aloqalari bo'lgan yoki ularni o'rnatishni rejalashtirgan tashqi hamkorlari. Biznes-xamkor tushunchasi mijozlar, qo'shma korxonaning biznes hamkorlari, autorsing kompaniyalari, Biznes-sheriklar va boshqalar kabi keng ma'noga ega;

biznes-hamkor benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar) — Biznes-hamkorning xususiy egasi bo'lgan yoki ushbu Biznes-xamkor uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir ko'rsatish yoki boshqacha tarzda uning xarakatlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

BXM – Bank xizmatlari markazlari;

korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni

soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

KQKMT – Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi;

manfaatlar to'qnashuvi – Bank xodimining shaxsiy manfaati (bevosita yoki bilvosita) u tomonidan xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan Bank manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

maxfiy axborot – bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot;

tashabbuskor – Bankda tegishli shartnomani imzolash taklifini bildirgan tarkibiy bo'linma.

2-bob. Kompleks tekshirishni boshlash tartibi, talablar va hujjatlarni va uning manbalarini tekshirish

4. Bank biznes hamkorlarini quyidagi toifalarga ajratadi:

a) **Mijozlar:** kredit oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxslar;

b) **Kontragentlar:** xizmatlar yoki tovarlarni taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxslar;

c) **Tashqi hamkorlar:** Bank bilan shartnoma tuzgan davlat yoki xorijiy hokimiyat organlari, investitsiya institutlari va xususiy kompaniyalar;

5. Bankning ichki hujjatlarida keltirib o'tilgan barcha tegishli biznes hamkorlar ustidan kompleks tekshiruv o'tkazishi zarur.

6. Mijozlar toifasi bo'yicha "“Turonbank” ATBning Kredit siyosati”da belgilangan talablarga muvofiq kompleks tekshiruv o'tkaziladi.

7. Kontragentlarni kompleks tekshiruvdan o'tkazish "“Turonbank” ATBda kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma” talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

8. Bank xavfi past darajadan yuqori bo'lgan xususiy investitsiya institutlarini, xorijiy kompaniyalarni va boshqa turdagi tashqi hamkorlarni tegishli kompleks tekshiruvdan o'tkazadi.

9. Tashabbuskor tuzilma Bankning Korrupsiyaga qarshi kurash Siyosati talablari to'g'risida biznes hamkorga ma'lumotlarni yetkazadi. Potensial Biznes hamkor bilan dastlabki muzokaralar bosqichida shartnoma tuzish uchun mas'ul bo'lgan tashabbuskor tuzilma 1-ilovaga asosan tegishli ma'lumotlarni to'playdi.

10. Biznes hamkorlarni kompleks tekshiruvi quyidagi tartib bo'yicha o'tkazadi:

1) shartnoma majburiyatlarini to'liq bajarish uchun moliyaviy va moddiy omillarning yetarliligi;

2) tashqi hamkor ro'yxatdan o'tgan manzil, faoliyat yuritayotgan mamlakat, faoliyat sohasi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar;

3) qonun buzilishlari;

4) korrupsiyaga qarshi kurash choralarining mavjudligi yoki yo'qligi;

5) bank xodimlari va tegishli shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash;

6) offshor zonalarda hisoblarning mavjudligi yoki yo'qligi.

11. Quyidagilar Komplaens tekshiruvdan o'tkazilmaydi:

a) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari;

b) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari;

- c) huquq-tartibot idoralari;
- d) nazorat organlari;
- e) tabiiy monopoliya subyektlari;
- f) O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tashkil etilgan tashkilotlar.

12. Ushbu ma'lumotlarning mavjudligi hamkorlikni rad etishning to'liq dalili bo'la olmaydi yoki salbiy ma'lumotlarning yo'qligi har doim ham tashqi hamkorning halolligini kafolatlay olmaydi. Shu bilan birga, tashqi hamkorga nisbatan yuqoridagi savollar bo'yicha salbiy faktlarning mavjudligi korrupsiya xavfi pastdan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Barcha ma'lumotlarni to'plashdan so'ng, keyingi hamkorlik to'g'risidagi qaror vakolatli shaxslar tomonidan ma'qullash yoki rad etish yo'li bilan qabul qilinadi.

13. Shartnomalarga o'zgartirishlar kiritish zarur bo'lsa, tashqi hamkorlar bilan munosabatlar qayta ko'rib chiqiladi. Shartnomalar, bitimlar va boshqa turdagi shartnomalarini tuzishda shartnoma tuzish uchun mas'ul shaxs shartnomaga korrupsiyaga qarshi kurash shartlarini kiritadi. Ushbu shartlarga ko'ra, Bank bilan tuzilgan shartnoma korrupsiyaning oldini olish bo'yicha majburiyatlarni o'z ichiga oladi, ular bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq. Tashqi hamkorlar tomonidan poraxo'rlik yoki korrupsiya faktlari aniqlangan taqdirda, Bank shartnoma yoki hamkorlikni bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

3-bob. Kompleks tekshiruvlari natijalarini shakllantirish va hujjatlashtirish

14. Tekshiruv natijalari bo'yicha tashshabuskor tuzilma 1-ildavda ko'rsatilgan ushbu Yo'riqnoma talablariga muvofiq ochiq xulosa tuzadi. Tashqi hamkorlarni tekshirish natijalari bo'yicha xulosa tahlilni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar bilan birgalikda tashhabuskor Komplaens nazorat departamentiga yuboradi.

15. Komplaens nazorat departamenti ushbu hujjatlarning to'liqligi, to'plangan ma'lumotlarning talablarga nisbatan muvofiqligi, taklif etilgan choralarni yetariligi, ushbu yo'riqnomaga muvofiq bajarilganligini tahlil qiladi va o'z xulosasini 2 ish kuni ichida tashhabuskorga taqdim etadi

16. Haqiqiy yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi belgilari aniqlansa, Komplaens nazorat departamenti uni hal qilish choralari ko'rish bo'yicha taklif kiritadi. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki yo'qligi tahlili natijalari va uni hal qilish choralari tashqi hamkorlarni tekshirish natijalari bo'yicha xulosada ham aks ettiriladi.

17. Korrupsiya xavfi aniqlanganda, Komplaens nazorat departamenti tashqi hamkor bilan ishlash bo'yicha aniqlangan xavflarni kamaytirishga qaratilgan tavsiyalarni taklif qiladi va komplaens tekshiruv xulosasida aks ettiradi (masalan, shartnomada avans to'lovlarini taqiqlashni kiritish va hokazo).

18. Tashqi hamkor va Bank xodimi o'rtasida haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, u shartnomani imzolash jarayoniga o'tishdan oldin Bankning manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish to'g'risidagi ichki hujjatiga muvofiq hal qilinishi kerak. Agar manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning iloji bo'lmasa, kelishuv natijalari bo'yicha xavfni nazorat qilish yoki hamkorlikni rad etish choralari ko'rilishi mumkin.

19. Kompleks tekshiruv yakunlangan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay Komplaens nazorat departamenti ma'sul xodimi ko'rsatilgan ma'lumotlarni 2-ildavda keltirilgan reestrda kiritadi.

20. Tashqi hamkor reestri, shuningdek, kompleks tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi ariza, tashqi hamkor kompleks tekshiruvi natijalari bo'yicha xulosa, tashqi xamkorlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar Komplaens nazorat departamentida 3 (uch) yil saqlanishi kerak.

4-bob. Biznes hamkorlarni kompleks tekshiruvdan o'tkazish talablarini amalga oshirishda javobgarlik

21. O'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni sifatli va o'z vaqtida bajarilishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga binoan javobgar hisoblanadi.

22. O'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining ma'muriy, jinoiy va fuqarolik qonunchiligi doirasida belgilangan qoidabuzarliklar uchun javobgar hisoblanadi.

23. Ko'rib chiqilayotgan hujjatlarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan hamda o'z xizmat majburiyatlarini bajarish natijasida ma'lum bo'lgan ma'lumotlarning maxfiyligini, bank sirini tashkil qiluvchi hujjatlarni lozim darajada saqlanishini ta'minlash va O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonuni talablariga qat'iy amal qilish yuzasidan javobgardir.

24. Mehnat intizomiga rioya qilishi va bank mulkini saqlanishi yuzasidan javobgarlikni olib boradi.

25. Mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli.

26. Bank tizimida ushbu Yo'riqnoma doirasida korrupsiyaga qarshi "komplaens nazorat" tizimi tartib qoidalarini, me'yoriy hujjatlar talablarini buzgan rahbar va ma'sul xodimlar lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha javogralikka tortiladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

27. Ushbu "Turonbank" ATB tizimida tashqi hamkorlarni kompleks tekshiruvi Yo'riqnomasi" tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur Yo'riqnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

29. Ushbu Yo'riqnoma talablariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat belgilangan tartibda Bank Kengashi va Bank Boshqaruvi, Komplaens nazorat departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

30. Mazkur Yo'riqnoma talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

31. Ushbu Yo'riqnomada ko'zda tutilmagan boshqa holatlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Bank ichki me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

“Turonbank” ATB tizimida
tashqi xamkorlarni kompleks tekshiruvi
yoriqnomasiga 1-ilova

Tashqi hamkorlarni kompleks tekshirish formasi

Tashqi hamkorlar haqida umumiy ma'lumot:

t/r raqami.	Tekshirish uchun ma'lumot	Ha / Yo'q	Eslatma
1	Shartnoma majburiyatlarini to'liq bajarish uchun moliyaviy, moddiy va insoniy omillarning yetarliligi		
2	Biznes sherigini ro'yxatdan o'tkazish joyi, tadbirkorlik mamlakati, faoliyat sohasi haqida asosiy ma'lumotlar		
3	Qonun buzilishi		
4	Korrupsiyaga qarshi choralarning mavjudligi		
5	Affillangan shaxslarning mavjudligi		
6	Offshor zonalarda hisoblarning mavjudligi.		

Manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi

Real yoki potensial korrupsiya xavfi

Tavsiyalar

Ijrochi _____

Imzo _____
Sana _____

“Turonbank” ATB tizimida
tashqi xamkorlarni kompleks tekshiruvi
yoriqnomasiga 2-ilova

Tashqi xamkorlarni kompleks tekshirish reestri

T/r	Tekshirish so'rovi olingan sana	Ijrochi	Tashabbuskor (FISH, lavozimi va bo'limi)	Tashqi xamkor	Tashqi xamkorning STIR	Taqdim etilgan hujjatlar	Shartnoma munosabatlarini o'rnatishning maqsadi	Oldingi tekshiruvlar haqida ma'lumot (sanasi, ijobiy/salbiy xulosa / dastlabki tekshirish)	Aniqlangan xavflar	Xulosa sanasi	Izohlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1											
2											
3											
4											
5											
...											